INTERAKTIV METODLAR ORQALI MOTIVATSIYANI OSHIRISH VA UNING INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO‘NIKMASIGA TA’SIRI

Erkinboyeva Matluba Ulug‘bek qizi Student at Namangan State Institute of Foreign Language Email: usmanovjalolxon80@gmail.com

Annotatsiya: Motivatsiya chet tillarini o‘rganishda muhim omillardan biridir. Biroq, ingliz tilini chet tili sifatida o’qitiladigan muhitda ingliz tili o’quvchilar uchun majburiy fan bo’lishiga qaramay, barcha o’quvchilar ham uni o‘rganishga yetarli darajada motivatsiyaga ega emas. Shu sababli ham o’quvchilarning motivatsiyasini qanday oshirishni bilish juda muhim. Bu maqolada tilni chet tili sifatida o‘rganishda motivatsiyaning o‘rnini tushunishga yordam beradi. Ingliz tilini chet tili sifatida o‘qitish muhitida tez-tez uchraydigan past motivatsiya muammolarini ko’rib chiqiladi.

Kalit so’zlar: Motivatsiya, EFL mustaqil, metodlar, chet tillari, rolli o’yinlar, tadqiqotlar, hikoya aytish, so’rovnomalar, Likert shkalasi, o’yinlar, intrinsic motivatsiya, ekstrinsik motivatsiya

THE IMPACT OF INTERACTIVE METHODS ON INCREASING MOTIVATION AND ITS EFFECT ON STUDENTS’ SPEAKING SKILLS

Erkinboyeva Matluba Ulug'bek qizi

Student at Namangan State Institute of Foreign Languages

Email: usmanovjalolxon80@gmail.com

Annotation: Motivation is one of the important factors in EFL (English as a foreign language). But, in environment where English is taught as a foreign

language, even though it is a compulsory subject for students, not all learners as sufficiently motivated to study it. For this reasons, it is very important to know how to increase students' motivation in learning a foreign language. It also examines the common problem of low motivation in English as a foreign language learning contexts.

Key words: Motivation, EFL, individual, methods, foreign language, role-play, research, storytelling, questionnaire, likert scale, games, intrinsic motivation, extrinsic motivation

ПОВЫШЕНИЕ МОТИВАЦИИ ЧЕРЕЗ ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА НАВЫКИ ГОВОРЕНИЯ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Эркинбоева Матлуба Улугбековна

Студентка Наманганского государственного института иностранных языков

Email: usmanovjalolxon80@gmail.com

Аннотация: Мотивация является одним из ключевых факторов в изучении иностранных языков. Однако в условиях обучения английскому языку как иностранному (EFL), несмотря на то что английский является обязательным предметом, далеко не все учащиеся обладают достаточной мотивацией для его изучения. Поэтому понимание способов развития и поддержания мотивации студентов приобретает первостепенное значение. В данной статье рассматривается роль мотивации в изучении иностранного языка, анализируются типичные проблемы низкой мотивации в EFL-среде, а также изучается влияние интерактивных методов — ролевых игр, групповой работы, сторителлинга и игровых заданий — на повышение мотивации и развитие

навыков устной речи.

Ключевые слова: мотивация, EFL, интерактивные методы, иностранные языки, ролевые игры, сторителлинг, анкетирование, шкала Ликерта, игры, внутренняя мотивация, внешняя мотивация.

Kirish

Motivatsiya til o’rganishda, shuningdek, bsoqha ko’plab sohalarda ham muhim o’rin tutadi. Ko’plab tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, motivatsiyasi yuqori bo’lgan o’quvchilar til o’rganishda ko’proq muvaffaqiyatga erishadilar. Biroq har doim ham barcha o’quvchilarda chet tillarini o’rganishda yetarlicha motivatsiya mavjud bo’lavermaydi. Misol qilib, O’zbekiston maktablarini olsak, ko’plab o’quvchilar ingliz tilini fanini qiyin deb hisoblaydi va dars jarayonlarida faol ishtirok etish o’rniga boshqa mashg’ulotlarga chalg’ib dars e’tibor berishmaydi. Maktab va litsey darajasidagi o’quvchilarga ingliz tili majburiy fan sifatida o’qitiladi va uni ta’lim jarayoni davomida o’rganishlari shart. Shu sababli ham, ta’lim muassasasini tamomlagan o’quvchilarda kamida ingliz tilini boshlang’ich darajada muloqot qila olishlari kutiladi. Ammo, ba’zi o’quvchilar ingliz tilida erkin gapirishda qiyinchikka duch kelishadi. Bunga ba’zi hollarda o’ziga bo’lgan ishonch va motivatsiya pastligi sabab bo’ladi.

Motivatsiya til o’rganishda yagona omil bo’lmasa-da, uni ham hal qiluvchi ahamiyatga ega deb ayta olamiz. To’g’ri yo’naltirilgan va rag’batlantirilgan o’quvchi til o’rganishda yaxshiroq natijalarga erishishga moyil bo’ladi. Bundan tashqari o’quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olish ham zarur. Har bir o’quvchi o’ziga xos qiziqishlar va o’rganish uslubiga ega va bir xil yondashuv hamma uchun ham birdek samarali bo’lavermaydi. O’qituvchi o’quvchilarning qiziqishlarini aniqlab, dars jarayonlarini shunga qarab tashkil etsa ularni darsga

bo’lgan qiziqishlarini oshirishi mumkin.

Shu o’rinda, dars jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish ham yordam beradi. Guruhli ishlar, rolli o’yinlar va turli real hayotiy misollar orqali tashkil etilgan darslar o’quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi. Bundan tashqari, o’quvchilarning kichik yutuqlarini ham rag’batlantirish ularni o’ziga bo’lgan ishonchlarini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyot sharhi

O’quvchilar faolligini oshirishda motivatsiya masalasi alohida o’rin tutadi. Deci va Ryan (1985) o’zlarinimg “O’z-o’zini belgilash nazariyasi” (Self-determination theory) da motivatsiyani 2 turga bo’lib ko’rsatib berishgan. Bular: intrinsik (intrinsic motivation) va ekstrinsik motivatsiya (extrinsic motivation). Bulardan intrinsik o’quvchining o’zining qiziqishi, ishtiyoqi va ichki istagi bilan amalga oshirilganda namoyon bo’ladi ya’ni tilni o’rganish paytida jarayondan zavq oladi. Endi ekstrinsik motivatsiya esa tashqi omillar ya’ni baholar, imtihonlar va boshqalarining talablari tufayli yuzaga keladi.[1] Tadqiqot davomida, intrinsik motivatsiya samaradorligiga ekstrinsik motivatsiya ta’sir ko’rsatishini isbotlagan. Chunki tashqi rag’bat yo’qolganda ekstrinsik motivatsiya ham pasayib ketadi, ichki qiziqishga asoslagan motivatsiya esa o’quvchini mustaqil o’rganishga undab turadi. Aynan shu nazariyalar boshqa ta’limlarda ham o’z isbotini topgan. Shulardan biri hisoblangan EFL da til o’rganishga nisbatan ichki qiziqishni uyg’otish o’qituvchining muhim vazifalaridan biri ekanligidir. Tadqiqotchining fikricha, o’quvchi ingliz tilini faqat majburiyat ostida ya’ni imtihondan o’tish uchun uchun emas balki haqiqiy muloqot qilish va o’zi uchun , misol qilib aytadigan bo’lsak sayohat qilish uchun o’qisa, o’rgansa uning bu tilga bo’lgan qiziqishlari, natijalari ham sezilarli darajada oshidi.[2]

[1] Deci, E. L., & Ryan, R. M. (1985). *Intrinsic motivation and self-determination in human behavior*. Plenum Press.
[2] Dörnyei, Z. (2001). *Motivational strategies in the language classroom*. Cambridge University Press.

O’quvchilarning ingliz tilida erkin so’zlasha olaolishlari mumkinligi, o’zlariga bo’lgan ishonchlarini oshirish uchun o’qituvchilar turli metod va strategiyalardan foydalandilar. Ayniqsa, interaktiv metodlar bu borada samarali vosita sifati ko’plab tadqiqotlarda o’rganilgan. Bularga aytib o’tilgandek, rolli o’yinlar (role-play), hikoya aytish (storytelling) kabilarni keltirishimiz mumkin. Rolli o’yinlar o’quvchilarning motivatsiyasiga ta’siri haqida bir qancha tadqiqotlar o’tkazilgan. Ulardan birida, “role-play” asosida o’qitilgan o’quvchilarning ingliz tilida gapirish natijalari an’anaviy usul orqali o’qitilgan o’quvchilarga qaraganda yaxshiroq ekanligi aniqlashgan.[3] Rolli o’yinlar o’quvchilarga real muloqot qilishda tajriba qilish imkonini beradi, ularni darslarga faol jalb qilib, xatolarini qo’rqmasdan gapirishga undaydi. Bu bilan birga o’quvchilar nafaqat lug’at va grammatika bilimlarini lug’atda qo’llaydi, balki o’z nutqini erkin ifoda etish ko’nikmalarini ham rivojlantiradilar.

Metodologiya

O’quvchilarning darsga bo’lgan qiziqishlari va motivatsiyalarini oshirish maqsadida 6-7-sinf o’quvchilari orasidan 20 nafar sarab olindi. Ishtirokchilar ingliz tilini xorijiy til sifaida o’rganayotgan, turli darajadagi bilimga ega o’quvchilar edi. Maktabdagi 13, 14 yoshdagi o’quvchilarni tanlanganiga asosiy sabab, bu yoshda til o’rganuvchilar og’izaki nutq faoliyatlarida ko’proq qo’rquv his qilishadi vas hu bilan birga bu davrda o’quvchilarda barcha narsalarga bo’lgan ayniqsa tilga bo’lgan ichki motivatsiyaning shakllanishi yoki so’nishi uchun ham muhim bosqich hisoblanadi. Tadqiqot 3 haftaga mo’njanllangan bo’lib, ushbu davr mobaynida interaktiv metodlar muntazam ravishda dars jarayonlariga joriy etildi. Birinchi hafta o'quvchilarning boshlang'ich holati kuzatildi va so'rovnoma o'tkazildi. Bu bosqichda o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi, motivatsiya darajasi va gapirishdan

[3] Yuliana, Y., Kristiawan, M., & Suhartie, T. (2014). *The effect of role play toward students’ speaking skill (an experiment study at grade XI IPA High School 1 Batang Anai, Padang Pariaman Regency, West Sumatera, Indonesia).* **The Journal of Applied Sciences Research, 1**(4), 279–283

qo'rqish holatlari aniqlandi. Keying ikkinchi va uchunchi haftalarda esa interaktiv metodlar qo'llanildi hamda doimiy ravishda o'quvchilarning natijalari va o'zgarishlari kuzatib borildi.

So'rovnoma (Questionnarie) : So'rovnoma o'quvchilar 2 marotaba tarqatildi. Birinchisi interaktiv metodlar joriy etilishidan avval, keyingisi esa interaktiv metodlar joriy etilgach tarqatildi. Savollarda o'quvchilarning inglzi tilida gapirish paytida his qiladigan qo'rquvlarii darajasi, darsga bo'lgan qiziqishi va interaktiv metodlarga munosabatlari aniqlandi. Ushbu so'rovnoma Likert shkalasi asosida tuzildi. To'plangan so'rovnoma natijalari miqdoriy tahlil orqali – foiz va o'rtacha ko'rsatkichlar hiblanib, baholandi. Tadqiqot davomida barcha o'quvchilarning ma'lumotlari maxfiy saqlandi.

Natija va muhokama

So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, interaktiv metodlar joriy etilishidan oldin talabalarning aksariyati ingliz tilida gapirish mashg‘ulotlariga unchalik qiziqmas edi. Taxminan 68% talaba o‘z motivatsiyasini past yoki o‘rtacha deb baholagan. Ammo 8 hafta davomida interaktiv usullar qo‘llanilgandan so‘ng bu ko‘rsatkich 41% gacha kamaydi. Bu esa ko‘plab talabalarda motivatsiya oshganini ko‘rsatadi. O‘qituvchi kuzatuvlari ham ijobiy o‘zgarishlarni tasdiqladi. Dars jarayonida talabalar erkinroq gapira boshladi, ularning nutqi ravonlashdi va o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortdi. Ayniqsa, rolli o‘yinlar samarali bo‘ldi, chunki ular orqali talabalar real hayotga yaqin vaziyatlarda muloqot qilishni o‘rgandilar. Hikoya aytish faoliyati esa ularga o‘z fikr va his-tuyg‘ularini erkin ifodalash imkonini berdi. Sifat jihatdan olingan ma'lumotlar ham bu natijalarni qo‘llab-quvvatlaydi. Intervyular davomida ba'zi talabalar “endi sinfda gapirishdan uyalmayman” yoki “guruhda ishlash menga ishonch beradi” kabi fikrlarni bildirdilar.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, interaktiv o‘qitish metodlari EFL muhitida talabalar motivatsiyasini oshirish va gapirish ko‘nikmasini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Rolli o‘yinlar, hikoya aytish va guruh ishlari darsni yanada qiziqarli qiladi hamda talabalar uchun qulay va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratadi. Natijada ular darslarda faolroq qatnashadi va o‘z fikrini erkinroq ifodalay boshlaydi. Shu sababli o‘qituvchilarga bunday metodlarni dars jarayonida muntazam qo‘llash tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yuliana, Y., Kristiawan, M., & Suhartie, T. (2014). *The effect of role play toward students' speaking skill (an experiment study at grade XI IPA High School 1 Batang Anai, Padang Pariaman Regency, West Sumatera, Indonesia).* **The Journal of Applied Sciences Research, 1**(4), 279–283
2. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (1985). *Intrinsic motivation and self-determination in human behavior*. Plenum Press.
3. Harmer, J. (2015). *The Practice of Language Teaching* (5th ed.,) Pearson Education Limited.
4. Dörnyei, Z. (2001). *Motivational strategies in the language classroom*. Cambridge University Press.
5. Creswell, J. W., & Creswell, J. D. (2018). *Research design: Qualitative, quantitative, and mixed methods approaches* (5th ed.). SAGE Publications.
6. Cohen, L., Manion, L., & Morrison, K. (2018). *Research methods in education* (8th ed.). Routledge.